QASHQADARYO VILOYATI
QARSHI SHAHRI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko‘chasi, 60-uy. Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2022 - yil 30 - avgust 536-4-69-Q/22 Qarshi shahar hokimligi

Qarshi shahar hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini va tirbandliklarni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-fevral kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vidioselektr yig‘ilishining 11-sonli bayoni hamda Prezident Adminstratsiyasining 2022-yil 14-fevral kunidagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi AF-9-sonli farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov tomonidan 2022-yil 31-mart kuni tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ning 7-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, Qashqadaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 5-iyuldagi №24/6-2063-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida, shahar hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N

1. Qashqadaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 5-iyuldagi №24/6-2063-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarshi shahar hokimining o‘rinbosari v.b G‘.Sultonov, shahar ichki ishlar

organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (B.Mirzayev) viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi (B.Raximov) bilan birgalikda shahar hududidagi xalqaro va davlat hamda mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo‘llari, shahar markazidagi serqatnov ko‘chalarida joylashgan maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari hududlarida va boshqa hududlarida tirbandliklarni oldini olidini olish va harakat xavfsizligini tartibga olish maqsadida, 3.27 “to‘xtash ta’qiqlangan ” yo‘l belgilari va 3.28 “to‘xtab turish ta’qiqlangan ” yo‘l belgilari ilovaga muvofiq o‘rnatsin.

3. Mahalliy hokimliklar buyurtmachiligidagi ichki xo‘jalik yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko‘chalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar-Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan shakllantirilishi hamda “Shaffof yo‘l” platformasiga kiritilishiga e’tibor qaratilsin.

4. Favqulodda vaziyatlarda maxsus xizmatlar (tez tibbiy yordam, favqulodda vaziyatlar, imtiyozli) transport vositalari bundan mustasno.

5. Qarshi shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi yo‘l harakat xavsizligi bo‘limi va tegishli tashkilotlardan ushbu jarayonda tirbandliklarni oldini olishda (3.27 - avtomobillarining to‘xtash ta’qiqlangan, va 3.28-to‘xtab turish ta’qiqlangan) yo‘l belgisini o‘rnatish maqsadida yetarli darajada kuch va vositalar hamda xodimlar ajratish so‘ralsin.

6. Qarshi shahar hokimligi matbuot kotibi (U.Jabborov) va Qarshi shahar "Nasaf" teleradiokompaniyasi (D.Mamadaliyeva)ga yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan Qarshi shahriga o‘rnatilgan avtomobil yo‘llarida 3.27-avtomobillarining to‘xtash ta’qiqlangan, va 3.28-to‘xtab turish ta’qiqlangan yo‘l belgisini o‘rnatish keng jamoayotchillika yetkazilishini ta’minlash maqsadida, mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

7. Qabul qilinayotgan ushbu qaror "e-qaror.gov.uz" elektron tizimi orqali elektron ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab ijrochilarga va jamoatchilik e’tiboriga yetib borishi inobatga olinsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari v.b G‘.Sultonov va shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i B.Mirzayev zimmalariga yuklatilsin.

Qarshi shahar hokimi **N.Xolboyev**

Qarshi shahar hokimining
2022 yil 30 avgustdagi
536-4-69-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Qarshi shahrida 3.27 “to‘xtash ta’qiqlangan ” yo‘l belgilari va 3.28 “to‘xtab turish ta’qiqlangan ” yo‘l belgilari o‘rnatish haqida

№	Ko‘cha yoki avtomobil yo‘li nomi	Mo‘ljal (Oriyentr)	3.27 yoki 3.28	Ta’sir oralig‘i
I.Karimov ko‘chasi				
1.	I.Karimov ko‘chasi	Temir yo‘l boshqarmasi binosi yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
2.	I.Karimov ko‘chasi	Nasaf va I.Karimov ko‘chalari kesishgan chorrahadan Temir yo‘l Vogzal yo‘nalishida ko‘p qavatli bino yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
3.	I.Karimov ko‘chasi	Arbat savdo do‘koni yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
4.	I.Karimov ko‘chasi	Viloyat MG qo‘riqlash bo‘limi binosi yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
5.	I.Karimov ko‘chasi	Viloyat Adliya boshqarmasi binosi yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
6.	I.Karimov ko‘chasi	Majburiy ijro binosi yonida	3.27 (1 dona)	Keyingi yo‘l belgigacha
7.	I.Karimov ko‘chasi	Samsung savdo do‘koni yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
8.	I.Karimov ko‘chasi	Samsung savdo do‘koni yon ko‘chasiga kirish va chiqishda yo‘lni ikki tomonida	3.27 (2 dona)	200 metr
9.	I.Karimov ko‘chasi	Ko‘z kasalliklari va Adliya boshqarmasi avto turargoxi yonida	3.27 (2 dona)	100 metr

10.	I.Karimov ko‘chasi	Ko‘z kasalliklari binosi ro‘parasida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
11.	И.Каримов кўчаси	Тиббиёт техникоми ёнида	3.28 (1 дона)	Биринчи кўча туташмасигача
12.	I.Karimov ko‘chasi	Qarshi shahar Xokimyati binosi yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
13.	I.Karimov ko‘chasi	Qarshi shahar Xokimligi binosidan o‘tib Paxtazor mitti tumani ko‘chasiga kirish va chiqishga	3.27 (2 dona)	200 metr
14.	I.Karimov ko‘chasi	Baxor savdo do‘koni yonida	3.28 (1 dona)	Avto bekatgacha
15.	I.Karimov ko‘chasi	Qarshi televidenyasi binosi joylashgan ko‘chaga kirish va chiqishga	3.27 (2 dona)	200 metr
16.	I.Karimov ko‘chasi	Viloyat Xokimligi binosi ro‘parasida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
17.	I.Karimov ko‘chasi	Milliy bank binosi yonida	3.27 (1 dona)	350 metr
18.	I.Karimov ko‘chasi	Viloyat Xokimligi binosining orqa tomon avtoturargoxga kirish va chiqish ko‘chasiga	3.27 (6 dona) 3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
19.	I.Karimov ko‘chasi	Marka supermarketi yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
20.	I.Karimov ko‘chasi	A.Oripov maktabi yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
21.	I.Karimov ko‘chasi	Chevar savdo do‘koni ro‘parasida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
22.	I.Karimov ko‘chasi	Xalq qabul xonasi binosi yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
23.	I.Karimov ko‘chasi	Sulton mexmonxonasi yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
24.	I.Karimov ko‘chasi	Asia-allianse bank ro‘parasida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha

25.	I.Karimov ko‘chasi	Infin bank ro‘parasida va yonida	3.28 (2 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
26.	I.Karimov ko‘chasi	Do‘stlik supermarketi yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
27.	I.Karimov ko‘chasi	Yoshlar markazi yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
28.	I.Karimov ko‘chasi	Sag gilamlar savdo do‘koni ro‘parasida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
29.	I.Karimov ko‘chasi	1-maktab yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
30.	I.Karimov ko‘chasi	Shaxar elektr tarmoqlari binosi yonida	3.28 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
31.	I.Karimov ko‘chasi	Viloyat Prokuratura departamenti yonida	3.27 (2 dona)	
32.	I.Karimov ko‘chasi	Odina park yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
33.	I.Karimov ko‘chasi	SXF Qarshi mall savdo do‘koni yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
34.	I.Karimov ko‘chasi	Artel savdo do‘koni yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
35.	I.Karimov ko‘chasi	Maishiy texnika savdo do‘koni yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
36.	I.Karimov ko‘chasi	“Quramax” dorixona yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha
37.	I.Karimov ko‘chasi	Qishloq xo‘jalik boshqarmasi yonida	3.27 (1 dona)	Birinchi ko‘cha tutashmasigacha